

MAQSUD SHAYXZODA HAYOTIGA NAZAR

Xayriyev Xayriddin Sirojiddin o‘g‘li

Toshkent Davlat Transport Universiteti talabasi

xayriddinxayriyev08@gmail.com

+998932790455

Annotatsiya: Bilamizki har sohada ma’lum va mashhur bo‘lgan adiblarimizdan biri bu Maqsud Shayxzodadir. Uning hayot yo‘liga nazar tashlaydigan bo‘lsak aslida shunday buyuk adiblarimizdan biri Azarbayjonda tug‘ilgan. Hayotida ko‘p qiyinchiliklarni, tuhmat-u bo‘htonlarni boshidan o‘tkazgan Maqsud Shayxzoda ancha qiynalgan. Hayoti davomida O‘zbekistonga kelib qolishi-yu , shu yerda unumli ijod qilgani hammamizga ma’lum. Ushbu maqolada Maqsud Shayxzodaning hayoti yo‘li, uning „qalam durdonalari” hamda Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodiga bag‘shlangan ko‘plab ma’lumotlar yoritib beriladi.

A LOOK AT THE LIFE OF MAKSUD SHEIKHZODA

Abstract: We know that Maqsud Sheikhzada is one of our writers who is known and famous in every field. If we look at his life path, one of our great writers was born in Azerbaijan. Maqsud Sheikhzadeh, who has experienced many difficulties and slanders in his life, suffered a lot. It is known to all of us that he stayed in Uzbekistan throughout his life and created fruitful works here. In this article, the life path of Maqsud Sheikhzadeh, his “masterpieces of the pen” and a lot of information about the life and work of Maqsud Sheikhzadeh are highlighted.

ВЗГЛЯД НА ЖИЗНЬ МАКСУДА ШЕЙХЗОДЫ

Абстрактный: Мы знаем, что одним из наших писателей, известных и знаменитых во всех областях, является Максуд Шейхзаде. Если посмотреть на его жизненный путь, то окажется, что один из наших великих писателей действительно родился в Азербайджане. Максуд Шейхзаде, испытавший в своей жизни немало трудностей и клеветы, немало пострадал. Всем нам известно, что он всю свою жизнь пробыл в Узбекистане и создал здесь плодотворные произведения. В данной статье освещен жизненный путь Максуда Шейхзаде, его «шедевры пера» и много информации о жизни и творчестве Максуда Шейхзаде.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, Yozuvchilar uyushmasi, dotsent, surgun, drama, tragediya, tarjimon, kitob, she’r, qamalish, tarjima, e’tirof.

Key words: teacher, Writers' Union, docent, exile, drama, tragedy, translator, book, poem, imprisonment, translation, confession.

Ключевые слова: учитель, Союз писателей, доцент, ссылка, драма, трагедия, переводчик, книга, стихотворение, заключение, перевод, исповедь.

Kirish:

Barchamiz taniydigan hamda asarlarini sevib o‘qiydigan mashhur adiblarimizdan biri Maqsud Shayxzoda 1908- yilning 7-noyabrida Azarbayjon o‘lkasi Oqtosh shahrining Ganja qishlog‘ida dunyoga kelgan. Asl ismi Maqsud bo‘lib, uning otasini ismi Maqsumbek hamda Shayxzoda uning taxallusidir. Uning ilm olish davrlariga qaraydigan bo‘lsak, u ilk bor Bokuda joylashgan Doril-mualliminni tugatgan. Shundan so‘ng u bir qancha joylarda ishlaydi, jumladan, birinchi bo‘lib Darbanddagi 1-bosqich Azarbayjon maktabida undan keyin esa, Bo‘ynoqdagi ta‘lim va tarbiya texnikumlarida o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritadi. O‘sha davrlarning asosiy maqsadi bo‘lmish ilmlilarni yo‘q qilish niyati sababli, u 1927 – yili hibsga olindi hamda oradan ko‘p vaqt o‘tmay, ya‘ni 1928-yiliyoq Maqsud Shayxzoda Toshkentga surgun qilib yuboriladi. O‘sha paytda u O‘rta Osiyo universitetining Sharq fakultetida qisqa vaqt ichida o‘qiydi, hamda shundan keyin bu bir qancha jurnal va gazetalarda ishlay boshlaydi. Jumladan, u „ Guliston “ jurnalida va bundan tashqari „ Sharq haqiqati “ , „Qizil O‘zbekiston “ hamda „ Yosh lelinchi “ gazetalarining tahririyatlarida xizmat qilgan. Maqsud Shayxzoda 1938- yildan umrining oxiriga qadar o‘zbek adabiyoti tarixidan bir qancha pedagogika institutlarida ma’ruza o‘qigan.

Asosiy qism:

Maqsud Shayxzodaning dastlabki she’riy to‘plami „ Loyiq soqchi “ nomi bilan 1933- yilda nashrdan chiqadi. Shundan so‘ng ham uning bir qancha she’riy to‘plamlari nashrdan chiqqan bo‘lib ular quyidagilardir: „O‘n she’r“ (1932), „Undoshlarim“ (1933), „Uchinchi kitob“ (1934), „Jumhuriyat“ (1935), „O‘n ikki“, „Yangi devon“ (1937), „Saylov qo‘shiqlari“ (1938), „Kurash nechun?“ (1942), „Jang va qo‘shiq“, „Ko‘ngil deydi...“ (1943), „O‘n besh yilning daftari“ (1947), „Yurt she’rlari“ (1948), „Zamon torlari“, „Olqishlarim“ (1949), „Yillar va yo‘llar“ (1961), „She’rlar“ (1964). Shoir o‘zining she’rlarida atrofida ro‘y berayotgan hodisalar ha juda ahamiyat bergan holda, shu hodisalarni o‘zining she’rlarida gavdalantirishga harakat qiladi. Va u ularda asosan vatan va xalq hayotida ro‘y berayotgan voqealarga hamda mehnatkash va qadrlil xalqning obrazlarini shakllantirgan. Shundan so‘ng u yuqorida ta’kidlab o‘tilgan obrazlarni yanada yaxshiroq shakllantirish uchun dostonlar ham yozishga qo‘l urafi. Hamda uning „O‘rtoq mulk“ (1933), „Chirog“, „O‘rtoq“, „Meros“, „Tuproq va haq“ (1936), „Ovchi qissasi“, „Iskandar Zulqarnayn“ (1940), „O‘n birlar“, „Jenya“, „Oqsoqol“ (1943), „Axmadjonning hikmatlari“, „Uchinchi o‘g‘il“ (1944), „Nurmat otaning tushi“ (1947) singari liroepik asarlari o‘quvchilar yuzini ko‘radi. Bundan

tashqari adibning poytaxtimiz Toshkent hayotiga bagʻshlangan „Toshkentnoma“ asari ham oʻziga yarasha mashhurlik va qadr-qimmatiga egadir. Maqsud Shayxzoda tragediya janrida ham qalam tebratgan yozuvchilardan hisoblanib ikkinchi jahon urushi yillarida u Xorazmning ozodligi, erki hamda vatan oldidagi burchi boʻlmish uni himoya qilish vazifasini oʻtagan Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdiga atalgan yorqin asar: „Jaloliddin Manguberdi“ tragediyasini va bundan tashqari oʻzining otasini qotili sifatida tanilib, molu-mulkka boʻlgan xirs uni oxir oqibat uni otasini oʻldirish darajasigacha olib kelgan Abdulatif hamda Amir Temurdan qolgan yagona davlatni shunday avlodiga qoldirayotganidan afsuslangan va oxirida oʻz farzandi tomonida suyuqasd qilib oʻldirilgan ota obrazi boʻlmish Mirzo Ulugʻbekning siymosi gavdalantirilgan „Maqsud Shayxzoda“ tragediyalari ham mavjud. 1941yildayoq „Genial shoir“ monografiyasini eʼlon qilgan Sh. Umrining sunggi kunlariga qadar Navoiy hayoti va ijodi bilan muttasil shugʻullanib keldi. U Navoiyning 500 yilligi munosabati bilan yozgan „Navoiyning lirik qahramoni haqida“ (1948) maqolasidan keyin „Navoiy lirikasining baʼzi bir poetik usullari haqida“ (1959), „Ustodning sanʼatxonasida“ (3 qismli maqola, 1965—66), „Gʻazal mulking sultoni“ (1966), „Tazkirachilik tarixidan“ (1968) singari yirik ilmiy tadqiqotlar yaratib, navoiyshunoslik fanini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Maqsud Shayxzoda nafaqat dramaturg, shoir, adabiyotshunos, pedagogdir shuningdek u tarjimondir ham. U tarjimonlik sifatida ham bir qator ishlarni amalga oshirgan hamda u tarjima qilgan asarlarni biz bugungi kunda sevib oʻqib kelmoqdamiz. Jumladan u Sh. Rustavelining „Yoʻlbars terisini yopingan paxlavon“ (hamkorlikda) eposi, U. Shekspirning sonetlari, A.S. Pushkinning sheʼrlari, „Mis chavandoz“ dostoni, „Motsart va Salyeri“ tragediyasi, M.Yu. Lermontovning sheʼrlari va „Kavkaz asiri“ dostonini, shuningdek, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va boshqa yozuvchilarning ayrim asarlarini oʻzbek tiliga katta mahorat bilan tarjima qilgan. Adib 1952- yilda xibsga olinadi va 25 yil qamoq jazosi beriladi hamda 1954-yil ozod etiladi. Adib 1967- yil ogʻir xastalikka chalinadi hamda oʻsha yilning 19-fevral sanasida dunyodan oʻtadi.

Xulosa:

Adbiyot tarixida oʻchmas iz qoldirish hammaning ham qoʻlidan kelavermaydi, ayniqsa u boshqa bir davlatda tugʻilib, boshqa bir davlatning adabiyotida boʻlsa. Shunday oʻchmas iz qoldirgan adiblarimizdan biri boʻlmish Maqsud Shayxzodaning hayoti yoʻli har bir yosh kelajak avlod uchun faxrlanarli namuna desak mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Shunday ekan uning hayoti va ijodini oʻrganish hamda u kabi boʻlishga harakat qilish bu juda katta mahoratni talab etadi. Qisqa qilib aytganda daraxt oʻsib, toki meva tukkuniga qadar oʻziga keladigan har qanday qiyinchiliklarni yengib oʻtishi lozim, aks holda bir bahorni ham koʻrolmagan holda yozning issigʻi yoki qishning qahraton sovugʻidan nobud boʻlishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999.
- 2.Shayxzoda Maksud. Atokli xalg shairi. „Lenin uchkuni“, 1956, 18 may (o‘zbekcha)
- 3.Shayxzoda Maksud. Shoir kalbi duneni tinglar (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. 28 b. (o‘zbekcha)
- 4.Yusuf Shomansur, Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972;
- 5.G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975;
- 6.Zokirov M., Maqsud Shayxzoda. Adabiytanqidiy ocherk, T., 1969;
- 7.Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983;
8. Google internet tarmog‘i. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Shayxzoda>